



## TA'LIMDA RASMIY ISH QOG'OZLARINING AHAMIYATI

Ro'ziqulov Shohruh Ilhom o'g'li

GulDU, shohruhroziqulov@gmail.com

Muratkulov Amanulla Tursunkulovich

GulDU, muratkulov64@mail.ru

Eshboyeva Fazilat Burxon qizi

GulDU, fazilattursuntoshiva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10799294>

### ARTICLE INFO

Received: 06th March 2024

Accepted: 07th March 2024

Published: 09th March 2024

### KEYWORDS

*rasmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, o'zbek tili uslubiyati, rasmiy ish qog'ozlari, ariza, tilxat, ishonch qog'ozlari.*

### ABSTRACT

*Maqolada rasmiy hujjatlarni shakllantirish va takomillashtirishda dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasi o'rganilgan. O'quvchilarda dastlabki rasmiy yozishmalarini xat, tilxat, ishonchnoma, ariza, tabriknoma, tarjimayi hol, e'lon misolida o'zlashtirish tadqiq etilgan.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng til o'qish va o'qitish ishlarida ham o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan bu tilning har tomonlama rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Jamiyatdagi har qanday o'zgarishlar dastlab tilda o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ona tili darsliklarini takomillashtirish, fan yutuqlarini hayotga tatbiq etish kun tartibidagi asosiy masala etib belgilandi.

O'zbek xalqi til mustaqilligiga milliy mustaqillikdan oldinroq erishgan bo'lsa-da, *o'zbek tili uslubiyati*, jumladan, *rasmiy uslub* tizimidagi o'zgarishlar, yangi rasmiy uslub me'yorlarning shakllanish davri mustaqillik davriga to'g'ri keladi va u hozir ham davom etmoqda.

"...o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgach, o'zbek tilida mukammal hujjatchilikni yaratish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi". Keng ommaga mo'ljallangan, 1990-yil mualliflar N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, M.Aminov tomonidan yaratilgan "O'zbek tilida ish yuritish" kitobi "shu mavzudagi dastlabki urinishdir" [1, 4].

Darsliklarda *rasmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub* mavzusi ostida ish qog'ozlarini rasmiylashtirish xususida fikrlar bildirildi. Bu o'z o'rnida o'quvchilarni ish qog'ozlari bilan ishlash madaniyati va savodini takomillashtirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Albatta bu ona tili darsliklarining takomillashib borayotganligidan dalolat beradi.

Davlat tili o'zbek tili *uslubshunoslik* bo'limining taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Jumladan, *rasmiy ish qog'ozlari* bilan ishlash uslubi takomillashdi. Tashqi tazyiqlar ostida kirib kelgan qoliplar o'rnini o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida matn tuzishda

turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalari egalladi. Shubhasiz, bu o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Rasmiy hujjatlarni shakllantirish va takomillashtirishda dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Har bir talaba yoki o'quvchi rasmiy ish hujjatlari bilan ishlashda o'zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo'lishi kerak. Shundagina biz bugungi demokratik jamiyat talablariga javob beradigan aniq va teran mantiqli hujjatlarni yarata olamiz. Aks holda o'quvchi o'zbek tili qonuniyatlarini yaxshi bilmasa, rasmiy ish qog'ozlarini rasmiylashtirishda ijobiy natijalarga erishib bo'lmaydi.

*Rasmiy uslub* haqida umumta'lim maktablari ona tili darsliklarining *nutq uslublari* bo'limida ma'lumot berib o'tiladi. *Rasmiy uslubda* adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinadi.

*Rasmiy uslub* adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubidir [5, 93]. Bu uslub davlat arboblari o'rtasidagi *diplomatik munosabatlarda*, idora, korxonada, muassasalarning *rasmiy ish yuritish* jarayonlarida, shaxslarning *ariza, tilxat, ishonch qog'ozi* singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi [3, 100]. Demak, rasmiy uslub haqida, rasmiy ish qog'ozlarining ijtimoiy hayotdagi o'rni xususida dastlabki umumiy tushunchalar berib o'tiladi.

Maktabda o'quvchilar ilk rasmiy hujjatlar yozish ko'nikmalarini o'rgana boshlaydilar. Ular *tilxat, tarjimayi hol, ariza, ma'lumotnoma, yig'ilish bayonnomasi* va boshqalardan iborat.

O'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'rgatishda *ish yuritish hujjatlari* qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'lib tavsiflangan:

1. Tashkiliy hujjatlar (*guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma* va boshqalar).
2. Farmoyish hujjatlari (*buyruq, ko'rsatma, farmoyish*).
3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (*ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon* va boshqalar).
4. Xizmat yozishmalari (*taklifnoma, telegramma, xatlar*).

Yuqorida ko'rsatilgan ish yuritish hujjatlarining har bir turi o'ziga xos nutqiy qoliplarga ega.

Rasmiy uslub asosan yozma shaklda amalga oshiriladi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. Masalan, "Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G.Hamidov haqiqatdan ham Boyovut tumani 46-sonli umumta'lim maktabining 9-sinfida o'qiydi..."

"Ariza"da "...qabul qilishingizni so'rayman", "Ishonch qog'ozi"da "...ishonch bildiraman", "Ma'lumotnoma"da "...ko'rsatish uchun berildi" kabi qolipli so'zlar va so'z birikmalari ko'p ishlatiladi.

Yig'ilish qarori hujjatlarida gap kesimlari "yuklatilsin", "topshirilsin" kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi. Lekin gap tarkibida odatdagi so'z tartibiga qat'iy rioya qilinadi, badiiy va boshqa asarlarda mumkin bo'lgan g'ayriodatiy (*kamina so'zim, keldi bahor* kabi) so'z tartibiga yo'l qo'yilmaydi. Rasmiy ish hujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi.

O'quvchilarning dastlabki rasmiy yozishmalarini *xat, tilxat, ishonchnoma, ariza, tabriknoma, tarjimayi hol, e'lon* misolida ko'rish mumkin. Bu hujjatlar asosan axborot almashinuv, axborot tashish maqsadida yozilsa ham, o'ziga xos turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan foydalaniladi.

Masalan *xat*ning muhim bir jihati shundaki, u aniq adresga yuboriladi. O'quvchilar xat jo'natishadi yoki xat olishadi. Shu orqali adres yozish malakasini egallaydi. Xat-xabarlar va boshqa jo'natmalarni tegishli joylarga va egasiga tezroq hamda adashmay yetkazib berishda adresni to'g'ri, aniq yozishning ahamiyati kattadir. Bu faqat pochta jo'natmalarida emas, balki internet tarmog'i orqali yozishmalarda ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar ongu tafakkurida huquqiy madaniyatni shakllantirishda rasmiy ish qog'ozlari katta rol o'ynaydi. Rivojlangan demokratik jamiyatda yashayotgan har bir kishining huquqiy savodi u rasmiylashtirayotgan hujjatlarda o'z ifodasini topadi. Rasmiylashtirilayotgan har bir hujjat bu inson taqdiri, inson hayoti bilan bog'liq ekanligini inobatga olsak, bunga nisbatan befarq bo'lishga haqqimiz yo'qligini tushunib yetamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рўзиқулов, Ш. (2022). ЖИНСНИНГ МОРФОЛОГИК УСУЛДА ИФОДАЛАНИШИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 148-151.
2. Akhrorov, A. (2019). ISSUE OF STUDYING THE " CULTURE OF SPEECH" AS A SEPARATE SCIENCE. NEWS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN, 1(4).
3. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. Pedagogika, 171.
4. Ahrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. Uzbekistan: Language and Culture, 4(4).
5. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 11(11).
6. Akhrorov, A. A. (2020). THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLK PROVERBS IN THE UPBRINGING OF A PERFECT PERSON. Theoretical & Applied Science, (1), 42-44.
7. Akbarovich, A. A. (2023). МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МА'НОНИНГ НАМОЙОН БО 'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 163-166.
8. Sharipov, F. G. (2021). CREATION OF MORPHOLOGICAL DICTIONARIES AS A FACTOR OF DEVELOPMENT OF UZBEK THEORETICAL MORPHOLOGY. Bulletin of Gulistan State University, 2021(2), 41-46.
9. Sharipov, F. G. (2022). Improvement of classification of parts of speech in modern Uzbek morphology. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 14, 16-22.
10. Sharipov, F. G., & Sharipov, J. G. (2021). THE EARLY PERIOD OF THE FORMATION OF UZBEK SCIENTIFIC LINGUISTICS IN THE MIRROR OF THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC CONSCIOUSNESS. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 41-46.
11. Sharipov, F. G., & Galiyev, T. F. (2021). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI. Academic research in educational sciences, 2(2), 89-94.

12. Sharipov, F. (2019). VIEWS OF AYUB GULOMOV OF WORD-FORMATION. Bulletin of Gulistan State University, 2019(1), 42-45.
13. Sharipov, F. G., & Toshtemirova, N. X. (2019). AYYUB GULYAMOV AND THE STUDY OF THE CASE SYSTEM IN THE UZBEK LANGUAGE. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 58-63.
14. Sharipov, F. G., & Raupov, M. X. (2019). THE HISTORY OF LEARNING OF SOME FORMULAS IN THE UZBEK LANGUAGE. HISTORY, 6, 29-2019.
15. Xudoyqulova, S. (2023). MAQOLLARDA SHEVAGA XOS SO 'ZLARNING QO 'LLANILISHI (A. Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari asosida). Journal of Universal Science Research, 1(4), 299-303.
16. Mamatqulov, A. (2022). YORMAT TOJIYEV NAZDIDA SINONIM AFFIKSLAR. Academic research in educational sciences, 3(10), 39-41.
17. Sharipov, F. G., & Mamatqulov, A. R. (2021). O'ZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGI HOLATI. Academic research in educational sciences, 2(2), 168-174.
18. Muxidillayev, F. (2022). LINGVOPOETIKANING O 'RGANILISHIGA DOIR QARASHLAR. Academic research in educational sciences, 3(7), 315-320.
19. Muxudullayev, F. (2023). LINGVOPOETIGA DOIR QARASHLAR. Journal of Universal Science Research, 1(5), 31-37.
20. Muhudullaev, F. (2023). INVERSION AS A SYNTACTIC OPPORTUNITY. Science and innovation, 2(B1), 402-405.
21. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG 'ON SO 'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. ILMIY AXBOROTNOMA, 57.

INNOVATIVE  
ACADEMY